O‘XSHATISHLARNING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Onarboyeva Xusnidaxon Shuhratjon qizi
SamDPI o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22860895

Annotatsiya

Maqolada o‘xshatishning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish tarixi va hozirgi holati tahlil qilinadi. Aristoteldan tortib hozirgi o‘zbek tilshunoslarigacha bo‘lgan qarashlar qisqacha ko‘rib chiqiladi. O‘xshatishning semantik, grammatik, stilistik va antroposentrik jihatlari, uning turlari (turg‘un va individual), tarkibiy qismlari hamda badiiy matndagi o‘rni yoritiladi. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlarning tadqiqi bo‘yicha qilingan ishlar tizimli ravishda umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, tashbeh, metafora, turg‘un o‘xshatish, individual o‘xshatish, lingvopoetika, stilistika, antroposentrik tilshunoslik.

O‘xshatish tasviriy ifodaning eng qadimgi ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Tilshunoslar eramizdan oldingi IV asr — Panini grammatikasidan boshlab, hind poetik-grammatik traktatlarida o‘xshatishlar poetik figura sifatida o‘rganilganligini ta’kidlashadi. Bundan tashqari, antik davr faylasuflari ham bu masalaga o‘z munosabatlarini bildirgan. Jumladan, Aristotel poeziyani o‘xshatish san’ati deb ataydi. Qolaversa, “ko‘chma so‘z (metafora) narsaga xos bo‘lmagan, jinsdan turga yoki turdan jinsga yoxud turdan turga ko‘chirilgan yoyinki o‘xshatilgan so‘zligini, u qisqargan o‘xshatish ekanligini aytib o‘tgan” [1, 31-b]. Uning fikricha, inson boshqa mavjudotlardan o‘xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ham farqlanadi, hatto dastlabki bilimlarini u o‘xshatishdan oladi va bu jarayonning natijasi barchaga huzur bag‘ishlaydi.

Aristotelning o‘xshatish haqidagi fikrlarida o‘xshatish ikki maqsadda: 1) bilish; 2) estetik zavq uchun amalga oshiriladi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu borada tilshunos olim R. Qo‘ng‘urovning fikrlari, ayniqsa, ahamiyatli. Olim bizning obyektiv olam haqida bilimlarimiz nisbiy xarakterda ekanligi, ya’ni biz tashqi olamdagi ayrim narsalar (masalan, olma, quyosh, asalning shirinligi) haqida bir konkret tushunchaga ega bo‘lish bilan birga, ayrim narsalar haqida (bu insonning olam haqidagi subyektiv bilimlari bilan belgilanadi) hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasligimiz mumkinligini ta’kidlaydi. Ikkinchi holatda bizning birimiz ikkinchimizga har ikkalamiz uchun tanish bo‘lmagan narsani bittamiz ko‘rib, uni ikkinchimizga tanishtirmoqchi bo‘lsak, shu predmetni suhbatdosh uchun juda yaxshi tanish bo‘lgan narsaga qiyoslashga kirishamiz. Bu jarayonda suhbatdosh uchun juda aniq bo‘lgan narsalarning shakli, hajmi, mazasi, ma’nosini gapirish orqali izohlashga harakat qilamiz. Masalan, keshyu mevasi yoki gulkaram haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmagan insonga keshyuning mazasi yong‘oqqa, shakli gajakka o‘xshashini (o‘zbekcha nomi gajak yong‘oq deb atalishining sababini ham shunday izohlash mumkin) yoki gulkaram shaklan gulni eslatishini izohlaymiz. Fitratida gul, yong‘oq, gajakning hamma belgilari haqida tasavvur mavjud bo‘lib, ikkinchi narsaning ba’zi bir belgilarinigina bilgan odamga bu ikki narsani bir-biriga o‘xshatish orqali o‘sha narsa haqida tasavvur uyg‘otamiz. Ta’kidlash kerakki, qiyoslash yoki o‘xshatish ma’lum (bilingan) narsa-xususiyat vositasida noma’lum (bilinmagan) narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkonini beradi. Bu esa biz uchun tanish bo‘lmagan narsa haqida ma’lum darajada tasavvur hosil qilishda juda katta ahamiyatga ega. Olim fikrlari tadrijida o‘zbek tilidagi yer

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yong'oq, yer tut, anjir shaftoli kabi predmet nomlari shunday qiyoslash natijasida kelib chiqqan bo'lishi mumkinligini aytib o'tadi. Olim qiyoslashdan ko'zlangan maqsad, qiyoslanayotgan narsa haqida faqatgina tasavvur uyg'otish emas, balki ana shu o'xshatilayotgan narsaga nisbatan o'z munosabatini ham bildirish, ya'ni u yoki bu hodisani o'z nuqtayi nazaridan baholash ekanligini aytib o'tadi [2, 34-b].

O'TILda o'xshatishga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ikki narsa yoki voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko'chimning sodda turi".

O.S.Axmanova "Tilshunoslik terminlari lug'ati"da lisoniy o'xshatishga quyidagicha ta'rif berilgan: "O'xshatish (ingl. simile, fr. comparaison, nem. Gleichnis, isp. símil) bir predmetni boshqasiga ular o'rtasidagi umumiy bo'lgan xususiyat asosida qiyoslash" [3, 444-b].

Tilshunoslar metafora, o'xshatish hamda iboralarni birlashtirib turgan narsa — inson ongiga xos bo'lgan o'xshatish-qiyoslash amaliyotiga asoslanishini ta'kidlashadi. Shuning uchun ham o'xshatishlar mantiq, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi fanlar uchun tadqiqot obyekti bo'la oladi.

Mantiq ilmida xulosa chiqarishning turli shakllari, xususan, uning maxsus shakli — analogiyaga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu fan mutaxassislarining ta'kidlashicha, analogiya deb o'xshatish orqali bir belgining ikki buyumda borligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o'xshash belgilarga ega ekanini ko'rsatishga aytiladi.

Bundan tashqari, o'xshatish o'zbek mumtoz she'riyatining an'anaviy vositalaridan biri bo'lib, XV asr badiiy san'atlar ilmining donishmandi Attoulloh Husayniy uni shunday ta'riflagan: "Tashbeh vasfta bir nimani bir nimaga o'xshatmoqtin iborattur. Anikim, tashbeh qilurlar, mushabbah derlar va aniki, anga tashbeh qilurlar mushabbah bih derlar va ul vasfini vajh-i shibh (o'xshatish tomoni) derlar".

Tilshunoslikda o'xshatish keng ma'noda ma'lum bir millatning asrlar davomida o'zlashtirgan bilimlari natijasi aks etgan lisoniy o'xshashlik sifatida aks ettiriladi.

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan. O'xshatishlarni R. Qo'ng'urov semantik-grammatik va semantik-stilistik jihatdan tadqiq qilgan [2]. Olim o'xshatishning mohiyati, uni tashkil qiluvchi unsurlar va o'xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik va leksik vositalar haqida dastlabki dadil fikrlarni berib o'tgan. Shuningdek, o'xshatishlarning badiiy tildagi lakonizm hodisasini (yun. lakonismos — qisqalik. Fikrni bayon qilishdagi qisqalik va aniqlik, adabiy ifoda sifatida asarda ortiqcha tafsilotlarga berilmaslikni, mezonni bilish va vazminlikni anglatadi) yuzaga chiqarishdagi ahamiyati haqida so'z yuritib, H. Olimjon ijodi doirasida bir necha guruhlarga bo'lib tasnif qiladi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qiladi:

Izohlovchi — izohlanmish formasida har ikki komponent bir-biriga teng keladi.	**Tabiat — bola:** Ba'zan yig'laydi, Ba'zan kuladi, — Ko'ngillar lola…
O'xshatiladigan predmet (o'xshatish obrazi) epitetli bo'ladi	**Fabrika — ulug' bir qalb;** Butun hislar birlashgan
O'xshatish subyekti epitetli, o'xshatish obrazi esa epitetsiz	**Qizil Maskov — inqilobning ka'basi,** Yasha, yuksal, ey erkinlar o'lkasi.
Har ikki komponent ham epitetli bo'ladi	**Uch ulug' xalq — uch baland tog',** Dovullarda mardonavor.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

	Uch ulug' xalq — uch okean, To'lqini ham okeanvor.

S. Karimov badiiy uslub va o'zbek tilining tasviriy vositalariga bag'ishlangan kitobida, qolaversa, yozuvchilar ijodining lingvopoetik va lingvostilistik tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida olimlarning o'xshatish haqidagi fikrlari va o'xshatish asosini tashkil qiluvchi unsurlarning tavsifi bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, ko'proq e'tiborini adiblar uslubini va mahoratini ochib beruvchi individual o'xshatishlar tavsifi va tasnifiga qaratadi [4; 5; 6].

M. Mukarramov o'xshatishning morfologik xususiyatlarini, uning yondosh hodisalarga munosabatini o'rganib, ularni quyidagicha tasnif qilgan [7]:

1. Sezgilar va tasavvurlar orqali ro'yobga chiqishiga ko'ra	Konkret
	Abstrakt
2. Badiiy adabiyot tilida qo'llanishiga ko'ra	An'anaviy
	Individual
3. Komponentlarining soni jihatidan	To'liq
	To'liqsiz
	Vositasiz
	Sodda
	Murakkab
	Tarkibli
	Uzilgan

G. Qobuljonova ilmiy tadqiqot ishida metafora va o'xshatish o'rtasidagi farqlarni izchil ravishda asoslab berdi. Bunda o'xshatish va metaforaning har ikkisi uchun analogiya asos bo'lishi nuqtayi nazaridan yondashilgan [8].

N. Mahmudovning qator tadqiqotlarida [9; 10] o'xshatishlarning mohiyati, asosi haqida so'z yuritilib, turg'un o'xshatishlar milliy mental hodisa bo'lib, xalq tafakkuri in'ikosi ekanligi aytib o'tiladi. Bu borada D. Xudoyberganova bilan hammualliflikda yaratilgan "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlarni qisman jamlagan dastlabki lug'at ekanligi bilan ahamiyatli [11].

Bundan tashqari, olim tilshunoslikda maqsadidan kelib chiqib o'xshatishning ikki turi farqlanishini ta'kidlaydi: "Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o'rtasidagi farqni ko'rsatish maqsadida qiyoslangan bo'lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, yer toshday qattiq), qiyoslash o'xshatish maqsadini ko'zda tutganda esa, o'xshatish konstruksiyasi shakllanadi (masalan, yer toshday qattiq)". Olim fikrlari tadrijida sof qiyosga qaraganda o'xshatishlar nutqda eng ko'p stilistik va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo'lgan konstruksiya ekanligini aytib, o'xshatishlarni to'rt unsurdan: o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichidan tashkil topganligini ta'kidlaydi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

D. Xudoyberganova tomonidan o‘xshatishlarning stilistik tomoni maxsus tadqiq qilingan bo‘lib, unda olima o‘xshatish asosi sifatida fe’l va sifat bilan ifodalangan o‘xshatish qurilmalarni tanlaydi va asosli tahlil qiladi [12].

M. Yoqubbekova o‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatishning tutgan o‘rnini tadqiq qilib, uning morfologik tarafini o‘rganishga diqqat qaratgan [13].

B. Umurqulov “O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasining IV bobida (“Badiiy nasrda obrazli ifodaviylik”) o‘xshatishlarga ham to‘xtalib o‘tadi. Uning fikricha, o‘xshatishning badiiy nasrda bir necha turlari mavjud bo‘lsa-da, ular orasida tuzilishi jihatidan o‘xshatishning obyekti va subyekti orasida o‘xshash belgi mavjud bo‘lmagan holda hosil bo‘ladigan turlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni bunda predmetlar emas, balki biror hodisa boshqa biror hodisaga qiyoslanishi asos qilib olinadi. O‘xshatishning bu turi ijodkor badiiy tafakkuri va fantaziyasining mahsuli o‘laroq vujudga keladi [14].

F. Usmonov turg‘un o‘xshatishlarni antroposentrik tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Ilmiy tadqiqotning o‘rganish predmeti o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar bo‘lib, unda o‘xshatishlar o‘zbek millatiga xos olamning lisoniy manzarasini namoyish etuvchi lingvomadaniy birliklar ekanligi dalillanib, ularning tahlili orqali o‘zbek madaniyati me’yorlarini aniqlash imkoniyati asoslangan. Bundan tashqari, “O‘zbek tilidagi o‘xshatishlar lug‘ati” kitobi tarkibiga kiritilgan o‘xshatishlarni semantik jihatdan tasniflab bergan [15].

Shuningdek, o‘zbek tilida o‘xshatish qurilmalarining konstruktiv tarkibi borasidagi fikrlarda bir xillik yo‘qligini ham aytib o‘tish kerak. Ba’zi ishlarda o‘xshatish uch qismdan iboratligi ta’kidlanadi: 1) o‘xshatish obyekti; 2) o‘xshatish obrazi, etaloni; 3) o‘xshatish belgisi yoki asosi. M. Mukarramov “O‘zbek tilida o‘xshatish” nomli monografiyasida ularni o‘xshatiluvchi obyekt, o‘xshatilayotgan predmet, o‘xshatma belgi deb ataydi. Olim o‘xshatishni uch uzvdan iboratligini ta’kidlasa (bunda o‘xshatish vositasini hisobga olmaydilar — izoh bizdan), R. Qo‘ng‘urov, S. Karimov, N. Mahmudov, D. Xudoyberganova, M. Yoqubbekova, B. Umurqulovlar to‘rt unsurdan (o‘xshatiluvchi predmet (o‘xshatish obyekti), o‘xshovchi predmet (o‘xshatish etaloni), o‘xshatma belgi (o‘xshatish asosi) va o‘xshatish vositasi (o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi)) tashkil topishini ta’kidlaydilar.

B. Umurqulov o‘xshatish vositalarining o‘xshatish hosil qilishdagi ishtirokini nisbiy deb baholaydi. Olim ayrim o‘xshatishlarda ko‘pincha bunday vosita ishtirok etmasligini aytib, shunga ko‘ra ularni vositali va vositasiz o‘xshatishlarga tasniflaydi. Vositali o‘xshatishlarda o‘xshatish hosil qiluvchi uch komponentdan tashqari o‘xshatish vositasi ham ishtirok etishini ta’kidlaydi.

D. Xudoyberganova esa o‘xshatish konstruksiyalarida komponentlarning biri uslub talabi bilan ifodalanmay qolishi mumkinligi va bu xilda tushirilish uning ma’nosini boshqa qismlar ma’nosi orqali anglash mumkinligi bilan izohlaydi.

Bizningcha, o‘xshatishni unga yaqin va aloqador bo‘lgan — metafora, epitet, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan farqlashda mana shu a’zolarning bo‘lishini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Negaki, ayrim olimlar tasnifiga kirmagan o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi (leksik va grammatik) yondosh tasviriy vositalardan o‘xshatishni ajratib olishimizda ko‘mak beradi. Masalan, alp qomat, gul yuz deyilganda o‘xshatish yuzaga keladi, lekin buni sifatlash deyish ma’qulroq, nazarimizda. Agar u alpdek qomat, gulday yuz tarzida o‘zgartirilsa, o‘xshatish yuzaga keladi. Biz ham tadqiqotda o‘z shakliy ko‘rsatkich (formant)lari bilan qo‘llangan o‘xshatishlarga asosiy e’tiborimizni qaratdik.

O‘xshatishlar o‘xshatilayotgan narsa yoki hodisa o‘rtasidagi belgi oldindan ma’lum yoki noma’lum ekanligiga ko‘ra ikki turga: 1) turg‘un o‘xshatishlar (umumxalq, umumnutq o‘xshatishlar); 2) individual

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

(badiiy, poetik) o'xshatishlarga bo'linadi. Turg'un o'xshatishlarning obyekt va subyekti avvaldan ma'lum bo'ladi. N. Mahmudov turg'un o'xshatishlar mohiyatini shunday tushuntiradi: "…ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodachilar sifatida turg'unlashgan, umumxalq leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi" [11]. Badiiy o'xshatishlar asosida esa ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan, ijodkor badiiy fantaziyasi bilan yaratilgan belgi mavjud chog'ishtiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, kutilmagan ifodalilik, obrazli va ta'sirchan fikr ifodalash o'xshatishning asosiy belgisi hisoblanadi. Xoh u turg'un, xoh individual o'xshatish bo'lsin, tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini to'laqonli tasvirlashda badiiy uslubda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham o'xshatishlar doim olimlarning diqqat markazida bo'lib, uni semantik, grammatik, stilistik va antroposentrik (lingvokognitiv, lingvomadaniy) jihatdan tadqiq etmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Античные теории языка и стиля. – М.–Л., 1936. – 31-, 174-, 216-, 219-б.
2. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 24–34-b.
3. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 444 с.
4. Karimov S. A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 1994. – 72 b.
5. Karimov S. A. G'afur G'ulomning poetik mahorati. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2003. – 27 b.
6. Karimov S. A. Zulfiya asarlari lingvostilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2006. – 5–115-b.
7. Mukarramov M. Metafora yasovchi o'xshatish vositalarining ma'nolari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1971. – 2-son. – B. 51–53.
8. Qobuljonova G. K. Metaforaning sistemaviy-lingvistik talqini: filol. fan. nomz. … diss. – Toshkent.
9. Mahmudov N. O'xshatishlar va milliy obraz // O'zbek tili va adabiyoti. – 2013. – № 1. – B. 4.
10. Mahmudov N. Oybek she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1985. – № 6.
11. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 4-b.
12. Xudoyberganova D. S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2015. – B. 64–74.
13. Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarida o'xshatish: monografiya. – Toshkent, 2003.
14. Umurqulov B. O'zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari: filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2020. – B. 46–271.
15. Usmonov F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: filol. fan. nomz. … diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 54–55.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.